

TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIIGI DOLZARB IJTIMOIIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Nurmatova Nargiza Ulug'bekovna

Profi University

Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Jahonda globalizatsiya, madaniyatlararo integratsiya jarayoni kechayotgan bir davrda, yoshlarda, ayniqsa o'quvchi qizlar, talaba qizlar, ayollarda ijtimoiy faollikni shakllantirish dunyo ta'lim siyosatida asosiy yo'nalishga aylanmoqda. UNESCO ning "Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action"¹ deklaratsiyasida ta'limning global rivojlanish yo'nalishlari belgilab olingan. Ushbu deklaratsiyada barqaror rivojlanish maqsadilari ta'lim olish, barchaning, ayniqsa, qizlar va ayollarning texnik, kasbiy va oliy ta'lim olishlarini kafolatlash, hamda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan. Talaba qizlarning sifatli, uzluksiz ta'lim olishlari nafaqat ilmiy dunyoqarashlarini kengaytirishga yordam beradi balki, kasb hunar ham egallashlari kafolatlanadi. Bu esa o'z navbatida butun dunyo talaba qizlarining ijtimoiy hayotiy faol inson bo'lishlariga, shuningdek, talabchan, tanqidiy va mustaqil fikrlovchi ijtimoiy faol bo'lishlariga xizmat qiladi.

Jahon miqiyosida oliy ta'limga e'tibor nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda, jumladan, butun dunyo miqiyosida oxirgi 50 yil davomida qizlarning oliy ta'limga qamrovi yildan yilga oshib bormoqda. Lekin, ta'lim olish borasida bo'shliqlar ham mavjudligi kuzatilmoqda. 2024-yil UNESCO Statistika instituti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra "Dunyo bo'yicha oliy ta'limga qabul qilingan talabalarning yarmidan ko'prog'ini tashkil qiligan bo'lishiga qaramasdan, STEAM yo'nalishi bo'yicha oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalardan 35% inigina talaba qizlar tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida oxirgi 10 yildan oshiq muddat davomida hecha qanday o'sish kuzatilmaganligini ko'rsatadi²". Jahon miqiyosida ham oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba qizlarning ijtimoiy faollogini oshirish eng muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

¹ Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. UNESCO together with UNICEF, the World Bank, UNFPA, UNDP, UN Women and UNHCR organized the World Education Forum 2015 in Incheon, Republic of Korea, from 19 – 22 May 2015, hosted by the Republic of Korea. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656>

² UNESCO. Global Education monitoring report. By: Silvia Montoya. New UIS data show that the share of women in STEM graduates stagnant for 10 years. 25 April 2024. <https://world-education-blog.org/2024/04/25/new-uis-data-show-that-the-share-of-women-in-stem-graduates-stagnant-for-10-years/>

Respublikamizda ham xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab quvvatlashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Yurtimizda "Qizlar akademiyasi" platformasi ham faoliya yuritmoqda.

Dunyoda kechayotgan bu jarayonlarga uyg'un tarzda, O'zbekistonda ham 2024-yildan boshlab qator muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Qizlar akademiyasi" platformasi ishga tushirilib, 100 mingdan ortiq yosh ayollar moliyaviy, huquqiy va kasbiy savodxonlik asoslarida o'qitilmoqda³. "Tadbirkor ayollar kengashi" orqali talaba-qizlar mentorlik dasturlari va amaliy loyihalarda faol ishtirok etmoqda⁴. Shuningdek, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan kontrakt asosida o'qishga ajratilgan imtiyozli kvotalar orqali oliy ta'limga kirish imkoniyati kengaymoqda⁵. Biroq amaldagi ijtimoiy pedagogik texnologiyalar hali gender-sezgirlik, raqamli muhit va fuqarolik kompetensiyalarini birlashtirgan tizimli modelga ega emas. Shu bois, talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda zamonaviy ijtimoiy pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish ilmiy va amaliy dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, xususan, oliy ta'lim tizimidagi yangilanishlar talaba-yoshlarning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, mustaqil qaror qabul qilish, fuqarolik mas'uliyatini anglash va ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan ta'lim strategiyalari shakllanmoqda. "Yangi O'zbekiston" g'oyasi asosida sog'lom, bilimli, Vatanga sadoqatli, tashabbuskor va yetakchi yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur jarayonlarda talaba-qizlarning o'z o'rniga ega bo'lishi, ularning faolligini oshirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy pedagogik texnologiyalarni zamonaviy yondashuv asosida qayta ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan. Gender tengligi, inklyuziv ta'lim, raqamli savodxonlik va ijtimoiy sheriklik kabi yo'nalishlar talaba-qizlarning ijtimoiy-huquqiy va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda ustuvor pedagogik tamoyillarga aylanmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va metodlarini yangilash, gender-adolat va ijtimoiy tenglik mezonlariga asoslangan modelni joriy etishni talab etmoqda.

Talaba qizlar ijtimoiy faolligi muammosi zamonaviy ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Ijtimoiy faollik tushunchasi shaxsning jamiyat hayotida ongli, tashabbuskor va mas'uliyatli ishtirok etishini ifodalaydi. Pedagogik

³ "Qizlar akademiyasi" platformasi haqida. Daryo.uz. 23.02.2024.

⁴ Tadbirkor ayollar kengashi faoliyati haqida. Daryo.uz, 2024.

⁵ Oila va xotin-qizlar qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. 2024.

nuqtayi nazardan ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi hamda jamiyat manfaatlariga mos faoliyat olib borishi jarayonida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy faollikning nazariy asoslari falsafa, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlarining o'zaro integratsiyasi asosida shakllangan. Sotsiologik yondashuvda ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy rollarni bajarishi va ijtimoiy institutlar faoliyatidagi ishtiroki bilan belgilanadi. Psixologik yondashuvda esa u shaxsning ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari hamda o'zini namoyon qilishga bo'lgan ichki intilishi bilan izohlanadi. Pedagogik yondashuvda ijtimoiy faollik tarbiya va ta'lim jarayonida shakllantiriladigan muhim shaxsiy sifat sifatida qaraladi.

Talaba qizlar ijtimoiy faolligining shakllanishi yosh davriga xos psixologik xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi, fuqarolik mas'uliyati va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda talaba qizlarda ijtimoiy jarayonlarga nisbatan qiziqish kuchayadi, o'z imkoniyatlarini namoyon etishga ehtiyoj ortadi. Biroq genderga oid ijtimoiy qarashlar, an'anaviy stereotiplar va muhit ta'siri ba'zan ularning ijtimoiy faolligini cheklovchi omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Talaba qizlar ijtimoiy faolligi jamiyatning barqaror rivoji va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Ularning ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki shaxsiy kamolot, fuqarolik mas'uliyati va kasbiy yetuklikning shakllanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talaba qizlar ijtimoiy faolligining rivojlanishi ta'lim muassasasida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar, ijtimoiy muhit va motivatsiya bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, tashabbuskorlik va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ijtimoiy-pedagogik ishlarni amalga oshirish jamiyatda faol va mas'uliyatli ayollar qatlamini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. UNESCO together with UNICEF, the World Bank, UNFPA, UNDP, UN Women and UNHCR organized the World Education Forum 2015 in Incheon, Republic of Korea, from 19 – 22 May 2015, hosted by the Republic of Korea. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656>
2. UNESCO. Global Education monitoring report. By: Silvia Montoya. New UIS data show that the share of women in STEM graduates stagnant for 10

years. 25 April 2024. <https://world-education-blog.org/2024/04/25/new-uis-data-show-that-the-share-of-women-in-stem-graduates-stagnant-for-10-years/>

3. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari. 2024.